



QARDOSH BO'LMAGAN TILLAR TIZIMIDA TO'LDIRUVCHI SINTAKSEMASI

Jo'rayeva Dilorom Raxmatillo qizi

Samarqand Davlat chet tillar Instituti

Ikkinchi chet tillar kafedrası tayanch doktoranti

d11001732@gmail.com

Annotatsiya. *Dunyo tilshunoslik maktablarida gapni struktural va funksional tahlil qilish har doim dolzarb muammo bo'lgan. Ko'pgina qardosh bo'lmagan tillar, xususan ingliz va o'zbek tillari gap tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklarni chog'ishtirma tadqiqot qilish zaruriyati tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada qardosh bo'lmagan tillar, jumladan ingliz va o'zbek tillari gap tarkibidagi to'ldiruvchi haqida ayrim mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Sintaksis, sintaktik tahlil, ikkinchi darajali bo'laklar, obyekt, hol, to'ldiruvchi.*

Avvalo sintaksis haqida qisqacha fikrlarga to'xtaladigan bo'lsak bir qancha olimlar sintaksis haqida turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan, Mahmudov va Nurmonovlarning fikriga ko'ra " Sintaksis, bir tomondan , so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan , tarkibida ushbu qoidalar ro'yobga chiqadigan bir butunlikni, gapni o'rganadi". Rus tilshunosi Vinogradovning fikriga ko'ra sintaksis so'z birikmasi, gap va qo'shma gaplarni o'rganuvchi ta'limot hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki sintaksis so'z birikmasi, gap, qo'shma gaplar va ularning ya'ni so'z shakllarining bog'lanish qoidalarini ham o'rganadi.

Gaplarning strukturasini turlicha yondashuvlar orqali yahlil qilishimiz mumkin albatta tahlil qilish obyektimizga ko'ra. Agar gapni sintaktik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak gap bo'laklarini bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratamiz. Bu fikr o'zbek va rus tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan. Ushbu maqolada ikkinchi darajali bo'laklardan hol va to'ldiruvchilar haqida ayrim fikrlar va bahstlab mulohazalarga to'xtalamiz. G'ulomov va Asqarovalarning ta'kidlashicha xol va to'ldiruvchi ba'zan bir xil formada bo'ladi. Ularni grammatik mazmun mohiyati va so'roqlariga ko'ra farqlash mumkin. Misol uchun "Bola uchun maktabdan ortiq sevimli narsa yo'q." ushbu gapda maktabdan so'zi "nimadan?" so'rog'iga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi ammo, "Bola maktabdan keldi gapida yuqoridagi so'z "qayerdan?" so'rog'iga javob bo'ladi va hol vzaifasida keladi. Bir qarashda ikkala bo'lak ham hol sifatida talqin qilinishi mumkin lekin ular so'roqlar orqali aniqlab olinadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirishimiz muki. " Shaharga talpinish har biur qishloq odamining hayolidan o'tadi" ushbu gapda "shaharga" so'zi nimaga



so'rog'iga javob bo'ladi va to'ldiruvchi vazifasida keladi. Lekin "Shaharga avtobusda ketyapman" gapida esa "shaharga" so'zi qayerga so'rog'iga javob bo'ladi va hol vazifasida keladi. Ushbu masalalar har bir til o'rganuvchini o'ylashga majbur qiladigan holatlardan biri hisoblanadi.

Tilshunos Mahmudov o'zining "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" kitobida to'ldiruvchiga shunday ta'rif beradi: Kesimning obyekt valentligini to'ldirib keluvchi kelishikli va ko'makchili morfologik shakllar orqali ro'yobga chiqadigan sintaktik shakl to'ldiruvchi hisoblanadi". Misol tariqasida quyidagi gapni keltirishimiz mumkin: Men bu ma'lumotlarni kitobdan o'qidim.

Ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tilida to'ldiruvchi kelishik va ko'makchilar yordamida ifodalanadi. "Maktabga dugonam bilan keldim".

Ingliz tilida esa predloglar orqali ifodalanadi. Misol tariqasida yuqoridagi gapni ingliz tiliga tarjima qilib keltirishimiz mumkin. "I came to school with my friend". Ushbu gapda dugonam bilan with my friend so'z birikmasi o'zbek tilidan farqli ravishda predlog bilan ifodalanayapti. To'ldiruvchi gap qurilishida kesim bilan sintaktik munosabatga kirishib uning bo'sh o'rnini to'ldiradi. To'ldiruvchi ikkinchi darajali bo'lak sifatida gapni to'liqroq bayon etishga xizmat qiladi. Quyidagi gapda farqni sezishimiz mumkin.

"Men o'qidim".

"Men kitob(ni) o'qidim".

Yuqoridagi gaplardan anglashilicha to'ldiruvchi gapni semantik jihatdan to'ldirib turadi. Ko'pgina tilshunoslar hol va to'ldiruvchini o'xshash va farqli jihatlarini farqlashga urinishadi. Ish harakatning qanday va qanday holatda sodir bo'lganligini ko'rsatuvchi gap bo'lagi hol deyiladi.

She will come soon.

I found him in the garden.

Yuqoridagi gaplarda hol soon va in the garden so'zlari orqali ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1987. – 256 б.

2. Маҳмудов Н., Нурмонов А., ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НАЗАРИЙ ГРАММАТИКАСИ (синтаксис).- Тошкент: "Ўқитувчи", 1995. - 149 б.

3. Халимова, Ф. Р. (2019). Прагматические свойства лингвфонетических средств в поэтическом тексте и их сравнительный анализ при переводе. Вестник Челябинского государственного университета, (1 (423)), 138-144.





4. Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI'S POETRY. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 274.

5. G'apporov M., Qosimova R. Ingliz tili Grammatikasi – Toshkent: "Turon-Iqbol", 2010. – 332 b.

